

E'zoxaxon Xamdamova

*Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati
davlat muzeyi ilmiy xodimi
E-mail: ezozahonhamdamova9@gmail.com
ORCID: 0009-0007-9145-2318*

**QUVA TUMANIDA JOYLASHGAN TARIXIY OBIDALAR VA
ULARNING ILMIY-MADANIY AHAMIYATI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Farg'ona vodiysining qadimiy madaniy-iqtisodiy markazlaridan biri bo'lgan Quva tumanining moddiy-madaniy meros obyektlari kompleksli tahlil qilingan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrdagi 846-son qarori bilan tasdiqlangan Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan 36ta obyektning tarixiy davrlashtirilishi va tasnifi yoritilgan. Qubo shahristoni, VII–VIII asrlarga oid noyob buddaviylik ibodatxonasi, mudofaa fortifikatsiya tizimi, shuningdek, Buyuk ipak yo'li tizimidagi “Silk Roads: Fergana-Syrdarya Corridor” xalqaro nominatsiyasidagi o'rni arxeologik manbalar asosida ochib berilgan. Shu bilan birga, tumandagi islom davri me'moriy obidalar va mahalliy ziyoratgohlarning region tarixiy-ma'naviy taraqqiyotidagi roli ko'rsatib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** Quva, Qubo shahristoni, Budda ibodatxonasi, fortifikatsiya, Buyuk ipak yo'li, Ahmad al-Farg'oniy, moddiy madaniy meros, Vera Bulatova, arxeologiya, ziyoratgoh.*

**ИСТОРИЧЕСКИЕ ПАМЯТНИКИ, РАСПОЛОЖЕННЫЕ В
КУВИНСКОМ РАЙОНЕ, И ИХ НАУЧНО-КУЛЬТУРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ**

***Аннотация.** В статье проведён комплексный анализ объектов материально-культурного наследия Кувинского района, являющегося одним из древнейших культурно-экономических центров Ферганской долины. В исследовании освещены историческая периодизация и классификация 36 объектов, включённых в Национальный список недвижимых объектов материального культурного наследия, утверждённый постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан № 846 от 4 октября 2019 года.*

На основе археологических источников раскрыто значение городища Кубо, уникального буддийского храма VII–VIII веков, оборонительной фортификационной системы, а также его места в международной номинации «Silk Roads: Fergana-Syrdarya Corridor» в системе Великого шёлкового пути. Наряду с этим показана роль архитектурных памятников исламского периода и местных святынь-паломнических объектов района в историческом и духовно-нравственном развитии региона.

Ключевые слова: Кува, городище Кубо, буддийский храм, фортификация, Великий шёлковый путь, Ахмад аль-Фергани, материальное культурное наследие, Вера Булатова, археология, места паломничества.

HISTORICAL MONUMENTS LOCATED IN KUVA DISTRICT AND THEIR SCHOLARLY AND CULTURAL SIGNIFICANCE

Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of the tangible cultural heritage sites of Kuva District, one of the ancient cultural and economic centers of the Fergana Valley. The study examines the historical periodization and classification of 36 sites included in the National List of Immovable Objects of Tangible Cultural Heritage, approved by Resolution No. 846 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated October 4, 2019. Based on archaeological sources, the article explores the significance of the Qubo ancient settlement, a unique Buddhist temple dating back to the 7th–8th centuries, the defensive fortification system, as well as its role within the international nomination “Silk Roads: Fergana-Syrdarya Corridor” as part of the Great Silk Road network. In addition, the role of Islamic-period architectural monuments and local pilgrimage sites in the historical and spiritual development of the region is highlighted.*

Keywords: *Kuva, Qubo ancient settlement, Buddhist temple, fortification, Great Silk Road, Ahmad al-Farghani, tangible cultural heritage, Vera Bulatova, archaeology, pilgrimage sites.*

Farg'ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan Quva tumani va uning ma'muriy markazi bo'lgan qadimiy Qubo shahri Markaziy Osiyo shaharsozlik madaniyati, xalqaro tranzit savdosi hamda konfessional munosabatlar tarixini tadqiq etishda muhim arxeologik platsdarm hisoblanadi. Ilk o'rta asrlarda Xitoy manbalarida "Xubo" yoki "Gubo" nomi bilan qayd etilgan mazkur shahar Buyuk ipak yo'lining Farg'ona-Sirdaryo tarmog'idagi asosiy forpostlardan biri bo'lgan [1, 2-b]. Quva tumanining boy tarixiy-madaniy merosini mazmunan quyidagi uch asosiy davrga ajratib o'rganish ilmiy maqsadga muvofiqdir:

1. Ilk va antik davr shaharsozligi: Qubo shahristonining quyi qatlamlari, ark, shahriston, rabod va murakkab konstruktiv mudofaa devorlari;

2. Islomgacha bo'lgan davr sinkretik madaniyati: VII–VIII asrlarga mansub Buddha ibodatxonasi kompleksi, haykaltaroshlik namunalari hamda zardushtiylik an'analari izlari;

3. O'rta asrlar va yangi davr merosi: Islomiy savdo-hunarmandchilik markazi sifatidagi yuksalish, buyuk mutafakkir Ahmad al-Farg'oniy merosi, yaqin o'tmish turar-joy me'morchiligi va mahalliy ziyoratgohlar.

Bugungi kunda ushbu obyektlarni tizimli o'rganish va sayyohlik infratuzilmasiga integratsiya qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrdagi 846-sonli qaroriga muvofiq, Quva tumanidagi 36ta moddiy madaniy meros ko'chmas mulk obyekti milliy ro'yxatga olingan. Ular orasida 24ta qadimiy arxeologiya yodgorligi, 4ta yaqin o'tmish me'moriy obidasi, 2ta monumental san'at yodgorligi hamda 6ta diqqatga sazovor ziyoratgoh mavjud bo'lib, ularning ilmiy pasportizatsiyasi va tarixiy tahlili dolzarb vazifalardan biridir.

Maqolaning manbashunoslik asosini XX asrning ikkinchi yarmida Y.G'.G'ulomov, V.D.Jukov va V.A.Bulatova boshchiligida Quva shahristonida olib borilgan O'zbekiston FA Arxeologiya institutining kompleks qazishma hisobotlari [3, 4-b], UNESCO va ICOMOS tashkilotlarining Buyuk ipak yo'li transmintaqaviy nominatsiyasiga oid hujjatlari [2] hamda O'zbekiston-Xitoy xalqaro qo'shma

arxeologik ekspeditsiyasining zamonaviy stratigrafik tadqiqot ma'lumotlari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tarixiy, arxeologik stratigrafiya, tipologik tasniflash hamda dala-muzey kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Tumandagi har bir tarixiy obyekt davlat kadastr hujjatlari va arxiv manbalari bilan solishtirilgan holda ilmiy baholandi.

1. Quva – Qubo shahristonining xronologiyasi va topografiyasi.

Qubo shahristoni hozirgi Quva shahri hududida joylashgan ko'p qatlamli yirik arxeologik majmuadir. Shahar topografiyasi klassik Sharq shaharsozligiga xos bo'lgan uch bo'g'inli tuzilmani: mustahkam ark (sitadel), shahriston (asosiy shahar hududi) va rabod (savdo-hunarmandchilik mavzelari) qismlarini o'zida aks ettiradi.

Shaharning paydo bo'lish sanasi bo'yicha ilmiy munozaralar mavjud. Ilk tadqiqotlarda uning dastlabki qatlamlari milodiy I–III asrlarga xoslangan bo'lsa, keyingi stratigrafik shurflar va kulolchilik majmualari tahlili ilk madaniy qatlamlar miloddan avvalgi IV–III (ayrim shurflarda V–III) asrlarga borib taqalishini ko'rsatmoqda [3, 5-b]. 2026-yilgi O'zbekiston-Xitoy qo'shma arxeologik ekspeditsiyasi izlanishlari esa shaharning umumiy rivojlanish davri miloddan avvalgi davrlardan boshlanib, to milodiy XIII asr boshidagi mo'g'ullar bosqiniga qadar uzluksiz davom etganini tasdiqladi.

Shaharda yuksak rivojlangan kulolchilik xumdonlari, temirchilik ustaxonalari, metallurgiya qoldiqlari va Markaziy Osiyoda noyob hisoblangan shishasozlik sexlari topilgan bo'lib, bu mahsulotlar Farg'ona vodiysidan tashqariga ham eksport qilingan [3, 4-b].

2. Buddaviylik majmuasi va madaniy sinkretizm.

1956–1959 va 1968–1969-yillarda V.A.Bulatova tomonidan shahristonning shimoliy qismida olib borilgan qazishmalar vaqtida VII–VIII asrlarga oid Budda ibodatxonasi topilishi jahon sharqshunosligida katta ilmiy qiziqish uyg'otdi [4].

Ibodatxona murakkab me'moriy planirovkaga ega bo'lib, undan ibodatxona zali, yo'laklar, sajdagoh sufalari hamda loy va ganchdan ishlangan ko'plab haykal bo'laklari ochilgan. Ayniqsa, ulkan hajmdagi Budda haykali fragmentlari,

bodxisattvalar, dahshatli qiyofadagi ma'budlar (masalan, Mahakala va Iorparlar) hamda turli mifologik jonzotlar tasviri Farg'ona plastik san'atining yuqori cho'qqisidir [4, 6-b]. Ushbu topilmalar islom kirib kelguniga qadar Farg'ona vodiysida buddaviylik mahalliy e'tiqodlar (ayniqsa, zardushtiylik va ajdodlar kulti) bilan uyg'un holda rivojlanganini va hudud ko'p madaniyatli sinkretik muhitga ega bo'lganini isbotlaydi [2, 6-b].

3. Fortifikatsiya va mudofaa inshootlari.

Qubo shahri mudofaa tizimi bir necha qurilish davrlarini qamrab olgan murakkab paxsa va xom g'ishtli qalin devorlar, burjlar hamda xandaqlardan iborat. UNESCO ekspertlari ta'kidlaganidek, shaharning fortifikatsiya inshootlari VI–XII asrlar davomida doimiy ravishda yangilanib, mustahkamlanib borilgan [2]. Devorlar konstruksiyasidagi strelkasimon shinaklar va dumaloq minoralar shahar nafaqat ma'muriy, balki strategik-harbiy jihatdan ham Farg'ona vodiysi darvozasini himoya qiluvchi asosiy nuqtalardan biri bo'lganini ko'rsatadi [3].

4. Buyuk ipak yo'li tizimi va xalqaro e'tirof.

Quva Qashg'ardan keluvchi karvon yo'llari O'sh orqali Farg'ona vodiysining ichki markazlari (Axsikent, Marg'ilon, Rishton, Qo'qon) va undan nari Samarqand hamda Choch vohasiga boruvchi magistral chorrahasida joylashgan [1, 2-b].

Ushbu noyob universal qiymati tufayli Qubo shahristoni UNESCOning "Silk Roads: Fergana-Syrdarya Corridor" (Ipak yo'li: Farg'ona–Sirdaryo koridori) transmillariy nominatsiyasi doirasida Butunjahon merosi ro'yxatiga nomzod obyekt sifatida rasman kiritilgan bo'lib, hozirda hududni saqlash va arxeologik boshqaruv rejalari ishlab chiqilmoqda [2].

5. Ahmad al-Farg'oniy merosi va keyingi davr obidalari

Quva zamini jahon fani ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan IX asr buyuk matematigi va astronomi Ahmad al-Farg'oniy nomi bilan bevosita bog'liq. 1998-yilda olim tavalludining 1200 yilligi xalqaro miqyosda nishonlanishi munosabati bilan Quva shahristoni bilan tutash hududda mahobatli Al-Farg'oniy me'moriy-yodgorlik majmuasi barpo etildi.

Quva tumanida joylashgan davlat ro'yxatiga olingan moddiy madaniy meros obyektlari

(O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrdagi 846-son qarori asosida)

T/r	Obyekt to'liq nomi	Obyekt davri	Obyekt manzili
I	Qadimiy arxeologiya yodgorliklari		
1	Mundaliq ota	Mil.avv. XII asr	“Mustaqillik” MFY
2	Quva shaharchasi	Mil.avv. XII asr	“Toshkent” MFY
3	Takyontepa	Mil.avv. III–IV asrlar	“Paxtakor” MFY
4	Rus mozortepa	Mil.avv. I – mil. VII asrlar	“Gulobod” MFY
5	Gulobodtepa	Mil.avv. I – mil. VII asrlar	“Gulobod” MFY
6	Oqtepa	Mil.avv. I asr	“Do‘stlik” MFY
7	Jartepa	Aniqlanmagan	“Iftixor” MFY
8	Chimyontepa	Mil.avv. I asr	“Iftixor” MFY
9	Laylakuyatepa	Mil.avv. I asr	“Iftixor” MFY
10	Yomonjartepa	Mil.avv. I – mil. VII asrlar	“Taxtakor” MFY
11	Salimtepa	Aniqlanmagan	“Bo‘ston” MFY
12	Zindontepa	Mil.avv. I – mil. XII asrlar	“Dehqonobod” MFY
13	Oqotabuva tepaligi	Mil.avv. I – mil. XII asrlar	“Turkrovot” MFY
14	Qo‘rg‘onchatepa	Mil.avv. I asr	“Bahor” MFY
15	O‘raboshitepa	Aniqlanmagan	“Mustaqillik” MFY
16	Yangichektepa	Aniqlanmagan	“Qoraqum” MFY
17	Chillamozortepa	Mil.avv. I – mil. VIII asrlar	“Qoraqum” MFY
18	Bo‘stonotatepa	Aniqlanmagan	“Namuna” MFY
19	Tolmozortepa	Mil.avv. I asr	“Tolmozor” MFY
20	Qorovultepa	Mil.avv. I asr	“Tolmozor” MFY
21	Tegirmontepa	Mil.avv. I asr	“Yangi hayot” MFY
22	Ketmontepa	Aniqlanmagan	“Soykeldi” MFY

23	Quva shahristoni	Mil.avv. VII asr	“Toshkent” MFY
24	Bektemirtepa	Mil.avv. I asr	“Qaqir” MFY
II	Yaqin o'tmish arxitektura yodgorliklari		
25	Abdulla Yoqubboy uyi	1890-yil	“Taxtak o'prik” MFY
26	Xo'jam Podshoh qadamjosi yodgorligi	XX asr	“G'alaba” MFY
27	Zayniddinboy uyi	1889-yil	“Quva” MFY
28	Tojikqishloq masjidi	1917-yil	“Tojikqishloq” MFY
III	Monumental san'at yodgorliklari		
29	Ahmad al-Farg'oniy qadamjosi (haykal, xiyobon)	1998-yil	“Toshkent” MFY
30	Xotira yodgorlik maydoni	1975-yil	“Quva” MFY
IV	Diqqatga sazovor joylar (ziyoratgohlar)		
31	Mundaliq ota ziyoratgohi	XX asr	“Mustaqillik” MFY
32	Sa'd Vaqqos ziyoratgohi	XXI asr	“Yangi hayot” MFY
33	Xo'ja Hasan ziyoratgohi	XX asr	“Turkrovot” MFY
34	Xoja Ahror Valiy qadamjolari ziyoratgohi	XX asr	“Iftixor” MFY
35	Tolmozor ziyoratgohi	XX asr	“Tolmozor” MFY
36	Qorong'ulik ota ziyoratgohi	XX asr	“Gulobod” MFY

Xulosa qilib aytganda, Quva tumanining moddiy-madaniy meros obyektlarini arxeologik, manbashunoslik va tipologik jihatdan kompleksli tahlil qilish quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi: Qubo shahristoni stratigrafiyasi Farg'ona vodiysida shahar madaniyati shakllanishi miloddan avvalgi davrlardan boshlanib, to milodiy XIII asrgacha uzluksiz davom etganini ko'rsatadi. Ark, shahriston va raboddan iborat klassik topografik tuzilma hamda bir necha qurilish gorizontlariga ega murakkab fortifikatsiya tizimi shaharning nafaqat yirik ma'muriy va hunarmandchilik (kulolchilik, shishasozlik, metallurgiya), balki muhim mudofaa-strategik markaz bo'lganligini isbotlaydi;

Quvadan topilgan VII–VIII asrlarga mansub Budda ibodatxonasi kompleksi hamda noyob haykaltaroshlik namunalari islomgacha bo'lgan davrda mintaqada buddaviylikning mahalliy zardushtiylik va ajdodlar kulti bilan sinkretik tarzda rivojlanganini ko'rsatadi. Bu holat Buyuk ipak yo'lining shimoliy tarmog'i orqali Hindiston, Toxariston, So'g'd va Xitoy sivilizatsiyalari bilan faol madaniy-g'oyaviy aloqalar mavjud bo'lganini namoyish etadi;

IX asr qomusiy olimi Ahmad al-Farg'oniy faoliyati, shuningdek, tumandagi islom davri qadamjolari (Tolmazor, Mundaliq ota, Sa'd Vaqqos ota) va yaqin o'tmish milliy me'morchiligi an'analari Quvaning o'rta asrlarda ham ilm-fan va ma'rifiy markaz sifatidagi maqomini saqlab qolganidan dalolat beradi;

Davlat ro'yxatiga olingan 36ta madaniy meros obyekti hududning ulkan turistik-rekreatsion va ilmiy potensialga ega ekanini tasdiqlaydi. Qubo shahristonining UNESCOning "Silk Roads: Fergana-Syrdarya Corridor" xalqaro transmintaqaviy nomzodlar ro'yxatiga kiritilishi hamda shahriston negizida zamonaviy "ochiq osmon ostidagi muzey" konsepsiyasining amalga oshirilishi ushbu noyob arxeologik yodgorliklarni konservatsiya qilish, xalqaro integratsiyasini ta'minlash va turizm markaziga aylantirishda strategik ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda Quva tumanidagi tarixiy obidalarni saqlash, restavratsiya qilish, ilmiy jihatdan chuqur o'rganish va ularni keng jamoatchilikka targ'ib etish dolzarb vazifalardan biridir.

Umuman olganda, Quva tumanining tarixiy obidalari Farg'ona vodiysining ko'p asrlik sivilizatsion taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim madaniy boylikdir. Ularni asrab-avaylash, ilmiy tadqiq etish va kelajak avlodlarga yetkazish nafaqat hududiy, balki umummilliy va xalqaro ahamiyatga ega vazifa hisoblanadi. Quvaning tarixiy merosini tizimli ravishda o'rganish O'zbekistonning qadimiy sivilizatsiyalar chorrahasidagi o'rmini yanada chuqurroq ochib berishga hamda milliy madaniy merosni xalqaro miqyosda targ'ib qilishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Анарбаев А. Ахсикет – столица древней Ферганы. – Ташкент: Тафаккур, 2013. – 535 с.
2. Булатова В. Древняя Кува. – Ташкент: Фан, 1972. – 160 с.
3. Булатова-Левина В. Буддийский храм в Куве // Советская археология. – 1961. – № 3. – С. 29–30.
4. Ставиский Б. Судьбы буддизма в Средней Азии: по данным археологии. – Москва: Восточная литература, 1998. – 335 с.
5. Матбабаев Б. Раннесредневековая культура Ферганы (на основе исторического анализа археологических источников V–VIII вв.): автореф. дис. д-ра ист. наук. – Самарканд, 2009.
6. Матбабаев Б., Иванов Г., Максудов Ф., Анарбаев А., Маишрабов З. Древние города Ферганской долины. – Ташкент: ЖИДУ, 2008. – 176 с.
7. UNESCO World Heritage Centre. Silk Roads: Fergana-Syrdarya Corridor. Tentative List of Uzbekistan. – Paris: UNESCO. – Electronic resource.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 04.10.2019. 846-son qarori "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida".